

TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR-kod

1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

1. Ushbu Tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasi va Mashg'ulotlar milliy klassifikatoriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, ekologiya sohasi bo'yicha sakkizta malaka darajasini Ekologiya, o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya sohasida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi ekologiya sohasida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasini muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Ekologiya sohasi bo'yicha Tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi ekologiya sohasida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malaka ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun ekologiya sohasida joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

2. Ushbu Tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasida mehnat vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan egallangan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

guruh – iqtisodiy faoliyatning keng sohasini bildiradi. Har bir guruh faoliyatning yirik segmentlarini birlashtiradi;

informal ta'lim – maqsadli yoki rejalashtirilgan, biroq institutsionallashtirilmagan ta'lim bo'lib, u oilada, ish joyida va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatlarini o'z ichiga oladi;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiluvchi muayyan mehnat vazifalari va funksiyalarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasbiy standart – norasmiy va informal ta'limni inobatga olgan holda, muayyan

kasbiy faoliyat sohasida bilim, ko'nikma, mas'uliyat va mustaqillik, malaka darajasi, mehnat mazmuni, sifati va sharoitlariga qo'yiladigan talablarni belgilovchi rasmiy hujjat;

kasbiy faoliyat sohasi – ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy sohalarda, ishlab chiqarishda namoyon bo'ladigan kasbiy faoliyat obyektlarining majmuasi;

kasbiy faoliyat turi – xususiyati, natijalari va mehnat sharoitlari bir-biriga yaqin bo'lgan mehnat funksiyalarining majmuasi. Kasbiy faoliyat turi kasbiy standartlarni ishlab chiqishda qo'llanilib, aniq mehnat funksiyalari hamda malaka talablarini tavsiflash uchun asos bo'lib xizmat qiladi;

kichik sinf – iqtisodiy faoliyatni eng aniqlik darajasida tasniflaydi. U sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini tavsiflaydi;

kompetensiya – bilim, malaka va shaxsiy sifatlarini ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun qo'llay olish;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va (yoki) aqliy jihatdan bajarish;

malaka – tegishli hujjat bilan tasdiqlanuvchi bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuasi bo'lib, shaxsning muayyan kasbiy faoliyat turini bajarishga tayyorligini aks ettiradi;

malaka darajasi – xodimlarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarining murakkablik, standart bo'lmagan mehnat harakatlari va mas'uliyat parametrlariga muvofiqlik darajasi;

mas'uliyat va mustaqillik – xodimning umumiy kompetensiyasini belgilab quyidagilar bilan ifodalanadi:

rahbarlik ostidagi faoliyat;

mustaqil ijro intizomi;

rahbarlik faoliyati.

Mashg'ulotlar milliy klassifikatori – O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llaniladigan mashg'ulotlar (kasblar/lavozimlar) nomlarini aks ettiruvchi va ularni bajariladigan ishning turiga muvofiq malaka darajasi va ixtisoslashuvi bo'yicha tasniflovchi mashg'ulotlar (kasblar/lavozimlar) ning tizimlashtirilgan ro'yxati;

Milliy malaka tizimi – kasbiy malakalar bo'yicha mehnat bozori talabi hamda ta'lim tizimi (jumladan, norasmiy va informal ta'lim) taklifini muvofiqlashtiruvchi hamda tartibga soluvchi huquqiy va institutsional vositalar va mexanizmlar majmui;

Milliy malaka ramkasi – kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan barcha malakalarni tavsiflovchi, mamlakatda kasbiy malakalarni tasniflash va tan olishning strategik muhim, konseptual vositasi hisoblanuvchi, malaka darajalari yig'indisidan iborat tashkiliy tuzilma;

norasmiy ta'lim – tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim bo'lib, shaxs yoki ta'lim xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi va rasmiy ta'limni to'ldiruvchi yoki uning alternativasi bo'lishi mumkin;

rasmiy ta'lim – davlat ta'lim muassasalari va davlat tomonidan tan olingan nodavlat ta'lim muassasalarida amalga oshiriladigan, tashkillashtirilgan, maqsadli va rejalashtirilgan ta'lim jarayoni;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning oʻrtacha darajada aniqlangan turlarini ifodalaydi. U guruh ichidagi ancha tor doiradagi faoliyatni ifodalash uchun ishlatiladi;

Tarmoq malaka ramkasi – Milliy malaka ramkasi, mashgʻulotlar, lavozimlar va kasblar klassifikatorlari asosida ishlab chiqiladigan hamda tegishli sohadagi kasblarga qoʻyiladigan malaka talablarini bajariladigan ishning murakkabligi, tarmoqda qoʻllaniladigan bilim, koʻnikma va kompetensiyalar xususiyatiga qarab darajalarga ajratuvchi tasniflagich.

Ekologiya sohasiga oid tayanch atama va tushunchalar:

Ekologiya – bu tirik organizmlar va ularning atrof-muhit bilan oʻzaro aloqalarini oʻrganadigan fan. Tabiatdagi muvozanatni, yashash sharoitlarini va organizmlarning bir-biriga hamda atrof-muhitga taʼsirini tahlil qiladi. Ekologiya insonning tabiat bilan qanday munosabatda boʻlishini tushunishga yordam beradi;

Iqlim oʻzgarishi – bu Yer yuzasidagi uzoq muddatli harorat, yogʻingarchilik va boshqa iqlim sharoitlarining oʻzgarishi. Bu oʻzgarish koʻpincha inson faoliyati, masalan, sanoat chiqindilari va oʻrmonlarning kamayishi sababli yuzaga keladi. Iqlim oʻzgarishi tabiiy muhitga va odamlar hayotiga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin;

Utilizatsiya qilish – bu eski, ishdan chiqqan yoki keraksiz boʻlgan narsalarni qayta ishlash, parchalash yoki yoʻq qilish jarayonidir. Maqsadi atrof-muhitni ifloslantirmaslik va resurslarni tejashdir. Masalan, avtomobillarni, elektron uskuna yoki chiqindilarni utilizatsiya qilish mumkin;

Zararsiz chiqindilar – bu atrof-muhitga yoki inson salomatligiga zarar keltirmaydigan chiqindilar. Ular koʻpincha tabiiy materiallardan yoki oson parchalanadigan moddalar sifatida boʻladi. Masalan, oziq-ovqat qoldiqlari yoki oʻrmon chiqindilari zararsiz chiqindilar hisoblanadi. Ularni qayta ishlash yoki tabiiy yoʻl bilan yutilishi mumkin;

Zararli chiqindilar – bu inson salomatligi va atrof-muhit uchun xavfli boʻlgan chiqindilar. Ularda zaharli kimyoviy moddalar, ogʻir metallar yoki radioaktiv materiallar boʻlishi mumkin. Bunday chiqindilar maxsus tarzda yigʻilishi, saqlanishi va utilizatsiya qilinishi zarur, chunki ular ifloslanish, kasalliklar va boshqa muammolarga olib keladi.

Mazkur tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishga asos boʻlgan qonunlar, qarorlar, normativ hujjatlar:

Oʻzbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrdagi “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi 754-XII-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi “Suv va suvdan foydalanish toʻgʻrisida”gi 837-XII-son Qonuni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-81-son Farmoni;

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PF-217-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 24-maydagi "Raqamli xizmatlar qamrovi va sifatini oshirish hamda soha, tarmoq va hududlarni raqamli transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-162-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yildagi 31-maydagi "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-343-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-iyundagi "Yer qa'ridan foydalanish, xavfli ishlar, xavfli tovarlar va moddalar, portlovchi materiallar ishlab chiqarish, ularning aylanishi sohasida hamda boshqa sohalarda ruxsat berish tartib-taomillaridan o'tish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 360-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentyabrdagi "Atrof-muhitga ta'sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 541-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son qarori.

Asosiy qisqartmalar:

MMR – Milliy malakalar ramkasi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi.

2. Tarmoq malaka ramkasining pasporti

Soha (tarmoq) ning tavsifi:

Ekologiya sohasi sanoatda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish, jumladan yer osti boyliklari, suv havzalari, o'rmonlar, hayvonot dunyosi va ularning yashash muhiti, alohida muhofaza qilinadigan hududlar va obyektlar, shuningdek gidrometeorologiya va unga turdosh sohalarda hamda ekologik monitoring sohasidagi faoliyatlarni amalga oshiradi. Shuningdek, mazkur sohada ekologik ekspertiza sohasidagi ishlar, alohida muhofaza qilinadigan hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish doirasida yer osti boyliklaridan foydalanish holati haqidagi ma'lumotlarni kuzatish, baholash va tahlil qilish, yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi hayvonlar va o'simliklar holati to'g'risidagi axborotni monitoring qilish, baholash va tahlil qilish bo'yicha faoliyatlar yo'lga qo'yilgan.

Ekologiya sohasi bo'yicha tarmoq malaka ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan:

E seksiyasi – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish;

N seksiyasi – Professional, ilmiy va texnik faoliyat;

P seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot;

S seksiyasi – San'at, sport va dam olish.

O'zbekiston Respublikasida Ekologiya sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1)ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
1	E seksiyasi – Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	38 Chiqindilarni yig'ish, utilizatsiya va yo'qotish	38.1 Chiqindilarni yig'ish;	38.11 Zararsiz chiqindilarni yig'ish	38.11.0 Zararsiz chiqindilarni yig'ish
				38.12 Zararli chiqindilarni yig'ish	38.12.0 Zararli chiqindilarni yig'ish
			38.2 Chiqindilarni utilizatsiya qilish (tiklash)	38.21 Materiallarni utilizatsiya qilish (tiklash)	38.21.1 Ikkilamchi xom ashyo olish uchun metall chiqindilarni saralash va qayta ishlash
					38.21.2 Ikkilamchi xom ashyo olish uchun nometall chiqindilarni saralash va qayta ishlash
				38.22 Energiyani qayta tiklash-rekuperatsiya qilish	38.22.0 Energiyani qayta tiklash-rekuperatsiya qilish
				38.23 Boshqa chiqindilarni utilizatsiya qilish (tiklash)	38.23.0 Boshqa chiqindilarni utilizatsiya qilish (tiklash)
			38.3 Qayta tiklanishsiz chiqindilarni yo'qotish	38.31 Energiyani qayta tiklamasdan rekuperatsiya qilish	38.31.0 Energiyani qayta tiklamasdan rekuperatsiya qilish

				38.32 Chiqindilarni ko'mib tashlash yoki doimiy saqlash	38.32.0 Chiqindilarni ko'mib tashlash yoki doimiy saqlash
				38.33 Boshqa chiqindilarni yo'q qilish	38.33.0 Boshqa chiqindilarni yo'q qilish
		39 Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar faoliyati	39.0 Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar faoliyati	39.00 Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar faoliyati	39.00.0 Tiklash va chiqindilarni yo'qotish sohasidagi boshqa xizmatlar faoliyati
2	N seksiyasi – Professional, ilmiy va texnik faoliyat	71 Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi faoliyat	71.2 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20 Texnik sinovlar va tahlillar	71.20.0 Texnik sinovlar va tahlillar
3	P seksiyasi – Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84.1 Umumiy tusdagi davlat boshqaruvi hamda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik boshqaruv	84.11 Umumiy tusdagi davlat boshqaruvi	84.11.1 Davlat hokimiyati va boshqaruvining respublika idoralari faoliyati
				84.12 Sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqa ijtimoiy xizmatlarni tartibga solish	84.11.2 Davlat hokimiyati va boshqaruvining hududiy idoralari faoliyati 84.12.0 Sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat va boshqa ijtimoiy xizmatlarni tartibga solish
4	S seksiyasi – San'at, sport va dam olish	91 Kutubxonalar, arxivlar, muzeylar va	91.4 Botanika va hayvonot bog'lari hamda	91.41 Botanika va hayvonot bog'lari faoliyati	91.41.0 Botanika bog'lari va hayvonot bog'lari faoliyati

		boshqa madaniyat obyektlari	qo'riqxonalar faoliyati	91.42 Qo'riqxonalar faoliyati	91.42.0 Qo'riqxonalar faoliyati
--	--	-----------------------------	-------------------------	----------------------------------	------------------------------------

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1	11111	Siyosiy davlat fuqarolik xizmatchilari
2	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
3	12190	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy-iqtisodiy va ma'muriy ishlar bo'yicha boshqaruvchilar, b.g.k.
4	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
5	13214	Chiqindilarni yig'ish va tozalash sohalarida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
6	21331	Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha professional-mutaxassislar
7	21332	Ekologlar
8	21333	Chiqindilar bo'yicha professional-mutaxassislar
9	21334	Ekologik audit va sertifikatlash bo'yicha professional-mutaxassislar (yashil ekologik barqarorlik)
10	21431	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muhandislar
11	21432	Kanalizatsiya tizimi va oqova suvlar bo'yicha muhandislar
12	31191	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha texniklar
13	31192	Materialshunoslik bo'yicha texniklar
14	31299	Boshqa mashg'ulot guruhlariga kiritilmagan brigadirlar, b.g.k.
15	31321	Chiqindilarni yoqish pechlari operatorlari
16	31329	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan chiqindilarni yoqish pechlari, suv tozalash inshootlari va shunga o'xshash qurilmalar operatorlari, b.g.k.
17	33593	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha inspektorlar
18	96110	Chiqindilarni yig'uvchilar va qayta ishlovchilar
19	96120	Chiqindilarni ajratuvchilar

3. Tarmoq tahlili

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-171-sonli Qarori asosida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tizimida yangi tashkil etilayotgan tuzilmalar faoliyatini yo'lga qo'yish jadvali belgilab olingan.

Mamlakatimizda ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiatni asrash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda yoshlarning ishtirokini oshirish, ular o'rtasida ekotarg'ibotni ko'paytirish hamda yoshlarni bir g'oya ostida birlashtirish

maqsadida qator ishlar amalga oshirildi.

2023-yilning yakuniga qadar respublikamiz bo'yicha o'tkazilgan tadbirlarda jami 2 500 000 nafarga yaqin volontyorlar va ekofaol yoshlar ishtirok etdi.

Yil davomida respublika bo'ylab tashkil etilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasining bahorgi va kuzgi mavsumlari doirasida mamlakatni ko'kalamzorlashtirish uchun mevali va manzarali daraxtlar ekish aksiyalarida ham tizimli ravishda ekofaollar va volontyorlarning ishtiroki ta'minlandi. Loyiha doirasida o'tkazilgan tadbirlarda mamlakatimizning barcha hududlaridan jami 800 000 nafarga yaqin ekofaollar va volontyorlar qatnashdi.

Ta'kidlash joizki, BMT Bosh Assambleyasining 2022-yil 14-dekabrda 77-sessiyasida qabul qilingan rezolyutsiyasiga muvofiq, 30-mart — "Xalqaro chiqindisiz dunyo kuni" ("International Day of Zero Waste") deb e'lon qilingan. Shu munosabat bilan, 30-mart kuni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida keng jamoatchilik bilan birgalikda yugurish orqali chiqindilarni saralab yig'ish — "plogging" tadbirlari tashkil etildi. Unda 800 nafardan ortiq ekofaollar va volontyorlar qatnashib, tabiatni asrash va hududlarni chiqindilardan tozalashda faollik ko'rsatishdi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va turizm sohalarida vazifalarni tezkor hamda yangi yondashuv asosida sifatli tashkil etish, shuningdek, mazkur yo'nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrda PF-217-son Farmoni va PQ-343-son Qarori tasdiqlandi.

Mazkur normativ-hujjatlarga muvofiq ekologiya sohasida quyidagi asosiy vazifalar belgilandi:

ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, takror ko'paytirish, chiqindilarni boshqarish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyotni rivojlantirish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish va moslashish;

hayvonot va o'simlik dunyosidan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish, atmosfera havosi hamda yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, shuningdek, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish;

jonli tabiatning turlari va genetik fondi, ekologik tizimlar, landshaftlar va noyob tabiiy obyektlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlash.

Shuningdek, ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi umummilliy loyihalarning asosiy vazifalari belgilandi. Unga muvofiq:

1. "Chiqindidan holi hudud" umummilliy loyihasi doirasida:

respublikaning barcha hududlarini qamrab oladigan chiqindilarni yoqib, elektr energiya ishlab chiqarish korxonalarini qurish;

tibbiyot va xavfli chiqindilarni xavfsiz va to'laqonli utilizatsiya qilish tizimini yaratish;

chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha yuridik shaxslar mas'uliyatini oshirish;
chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish xizmati sifatini oshirish va aholi talablariga moslashtirish, shu jumladan, texnika va konteynerlar sonini tubdan oshirish;

poligonlarni rekultivatsiya qilish va ular sonini keskin kamaytirish;

qayta yuklash stansiyalari faoliyatini yo'lga qo'yish.

2. "Toza havo" umummilliy loyihasi doirasida:

markaziy va sanoatga ixtisoslashtirilgan tuman (shahar)larning havo sifatini yaxshilash;

havo sifati surunkali buzilayotgan tuman (shahar)da alohida maxsus nazorat tizimini joriy qilish;

sanoat korxonalari tomonidan avtomatik monitoring stansiyalari, chang-gaz tozalash uskunalari va suv tozalash inshootlarining o'rnatilishini ta'minlash;

atmosfera havosining ifloslanishi kuzatuvlarining davlat tizimini rivojlantirish va modernizatsiya qilish;

tashlamalarning umumiy hajmini kamaytirish.

3. "Yashil makon" umummilliy loyihasiga quyidagi qo'shimcha vazifalar kiritildi:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qo'shimcha ravishda jami maydoni 100 gektardan kam bo'lmagan botanika va dendrologiya bog'larini tashkil qilish;

har bir shahar va tumanda kamida 2 tadan soyali sayr ko'chalarini tashkil qilish.

4. "Eko-madaniyat" umummilliy loyihasi doirasida:

maktabgacha ta'limning eng asosiy samaradorlik ko'rsatkichi sifatida bolalarda eko-odatlarni shakllantirish;

bolalar orasida ekologik hayot tarzini tashviqot qilish uchun eko-kontent bazasini shakllantirish;

Ekovolontyorlar milliy tarmog'ini yaratish hamda maktablarda tashabbuskor maktab o'quvchilarini taqdirlash maqsadida uch darajali eko-a'lochilar ko'krak nishonini joriy qilish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida eko-oromgohlar tashkil qilish. Bunda eko-a'lochilarning oromgohlarda imtiyozli ravishda dam olishini tashkillashtirish;

o'quvchilar va talabalarning startup loyihalari uchun mini-grantlar ajratib borish;

ekologik kraudfanding faoliyatiga huquqiy maqom berish va qo'llab-quvvatlash;

har bir mahallada jamoatchilik ekologiya nazoratchisi tizimini joriy qilish, bunda ular ishtirokida amalga oshirilgan ma'muriy jarimaning o'n foiz miqdoridagi mablag'larni jamoatchilik ekologiya nazoratchisini rag'batlantirishga yo'naltirish;

"Ekofaol", "Yashil tadbirkor" platformalarini joriy qilish.

5. "Bio meros" umummilliy loyihasi doirasida:

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish va ularning hududlarini kengaytirish;

kamyob va yo'qolib ketish xavfi bo'lgan yovvoyi hayvon va o'simlik turlari bo'yicha alohida pitomniklar tashkil qilish hamda ularni qayta tiklash (reintroduksiya) chora-tadbirlarini amalga oshirish;

biologik resurslardan barqaror foydalanish, shu jumladan, biologik xilma-xillik va ekotizim xizmatlarining qiymatini iqtisodiy baholash mexanizmlarini joriy etish.

Farmonga muvofiq ekologiya sohasida davlat ekologiya inspektori maqomiga ega bo'lgan xodimlarga maxsus unvonlar berish tartibini belgilandi.

Davlat ekologiya inspektoriga xizmat majburiyatlariga munosabati, malaka oshirish kurslarini o'taganligi, o'tagan xizmat yillari va egallagan lavozimini inobatga olgan holda yakka tartibda quyidagi maxsus unvonlar beriladi:

I, II, III darajali davlat ekologiya maslahatchilari;

I, II, III darajali ekologiya maslahatchilari;

I, II, III darajali ekologlar.

Davlat inspektorlari kasb bo'yicha xizmatga layoqatini baholash uchun har uch yilda kamida bir marta attestatsiyadan o'tkaziladi.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi islohotlarni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari dasturiga muvofiq 2026-yil davomida quyidagi amaliy loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda:

Respublikada 18 ta dendrologiya va 15 ta botanika bog'larini tashkil etishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish;

Toshkent shahrida ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining hayot sifatini oshirish hamda yashil hududlar qamrovini kengaytirish maqsadida "Yashil Toshkent" loyihasini amalga oshirish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibini tasdiqlash va uning vazifalarini belgilash;

Xalqaro standartlar talablariga javob beradigan qurilish uchun ajratilgan obyektlarda qurilish boshlanishidan oldin quruvchi tashkilotlar tomonidan fon monitoring stansiyalari va onlayn kameralar o'rnatilishi va boshqa ekologik talablarni amalga oshirishni nazarda tutuvchi "Qurilishda ekologik faoliyat standarti talablari"ni ishlab chiqish;

Xalqaro tajribani o'rgangan holda shamol yo'nalishlari (roza vetrov) va tezligini hisobga olgan holda qurilishni amalga oshirishni nazarda tutuvchi standart ishlab chiqish. Bunda shamol yo'nalishini inobatga olgan holda:

bino va inshootlarga qo'yiladigan talablarni belgilash;

bino va inshootlarning joylashuvini, shamol o'tishini hisobga olish;

qurilish ishlarini boshlashdan oldin qurilish, ekologiya va kadastr organlarining xulosalarini olish tartibini belgilash.

Mazut va shunga o'xshash yuqori ifloslantiruvchi yoqilg'i turlaridan foydalangan holda atmosferaga zararli moddalar chiqarilishi holatlarining oldini olish maqsadida javobgarlik choralari kuchaytirish bo'yicha qonunchilik hujjatlariga o'zgartirish kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi boshqaruv xodimlari faoliyatiga baho berib, ularning attestatsiyadan o'tkazilishini ta'minlash.

Sohadagi yirik korxona va tashkilotlar:

Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi;

Ekologik monitoring milliy markazi davlat muassasasi;

Davlat ekologik ekspertiza markazi davlat muassasasi;

Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi davlat muassasasi;

Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti davlat muassasasi;

Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi davlat muassasasi;

Eko-media markazi davlat muassasasi;

Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti davlat muassasasi;

O'zbekiston davlat tabiat muzeyi davlat muassasasi;

Toshkent hayvonot bog'i davlat muassasasi;

Farg'ona hayvonot bog'i davlat muassasasi;

Termiz hayvonot bog'i davlat muassasasi;

Loyihalarni boshqarish guruhi davlat muassasasi;

Bildirsoy-Chimyon-Nanay" xalqaro umum mavsumiy kurortini qurish va ekspluatatsiya qilish bo'yicha loyiha ofisi davlat muassasasi;

Davlat ekologik sertifikatlashtirish va standartlashtirish markazi MCHJ.

Ekologiya sohasida talab yuqori bo'lgan kasblar quyidagilarni tashkil etadi:

Barqaror rivojlanish bo'yicha mutaxassis (Sustainability Specialist), atrof-muhit muhandisi (Environmental Engineer), chiqindilarni boshqarish mutaxassisi (Waste Management Specialist), yashil energiya mutaxassisi (Renewable Energy Specialist), ekologik huquqshunos (Environmental Lawyer) va boshqalar.

Tarmoqda milliy malakalar tizimini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan hamda rejalashtirilgan ishlar:

2024-yil 10-fevral kuni Toshkent viloyatida Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ("Green University") tashkil etildi. Bu universitetning asosiy maqsadi Ekologik muammolarni samarali hal etish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan yuqori malakali olimlar, mutaxassislar, menejerlar va tadbirkorlarni tayyorlash. Mutaxassislarning yangi avlodini tarbiyalash orqali biz dolzarb ekologik muammolarni hal etishga hissa qo'shish, barqaror rivojlanishni rag'batlantirish va ushbu muhim sohalarda innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni maqsad qilganmiz. Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy hamkorlik, innovatsiyalar, ilmiy tadqiqotlar va muhim va umumiy ekologik muammolarga yangi yondashuvlarni shakllantirishda yagona platformaga aylanish.

O'zbekistondagi chiqindi poligonlari hududida ekosanoat zonalari tashkil etiladi. Bu 2025-yil 24-mart kuni qabul qilingan "Chiqindilarni qayta ishlash sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-56-sonli prezident farmonida belgilangan.

Farmonga asosan, chiqindilarni qayta ishlash sohasidagi asosiy yo'nalishlar belgilandi, xususan:

mavjud qattiq maishiy chiqindi poligonlarini 2030-yilgacha 50 foizga qisqartirish;

yangidan hosil bo'layotgan chiqindilarni poligonlarga yo'naltirmasdan, maksimal darajada qayta ishlash yoki kuydirish, sohaga sirkulyar iqtisodiyot amaliyotini joriy qilish.

Mamlakatimiz tashabbusi bilan Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trast fondi tuzildi. Umid qilamizki, ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qiladi. Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi". Shulardan kelib chiqqan holda Orol bo'yidagi ekologik muammolar naqadar jiddiy ekanligini ko'rishimiz mumkin va bu muammolarni xalqaro hamjamiyat bilan birgalikda hal etish choralari ishlab chiqish lozim.

2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi atrof-muhitni muhofaza qilish kontseptsiyasiga muvofiq Orol dengizining qurigan tubida o'rmonzorlar maydonini jami hududiga nisbatan 60 foizgacha yetkazish, Nukus, Urganch va Xiva shaharlari atrofida "Yashil belbog'" tashkil etish maqsadida tuzga chidamli, tez o'sar saksovul, cherkez va qandim o'simliklari ekish ishlari olib borilmoqda.

Tabiat komponentlari va hodisalarning o'zaro aloqasi hamda bog'liqligi turli xil ko'rinishlarda sodir bo'ladi. Buni o'simlik bilan hayvonot dunyosi, tuproq bilan zaminning ustki yotqiziqlari, yog'in miqdorining ko'payib yoki kamayib borishi bilan o'simliklar turi ham miqdor jihatdan o'zgarib borishida kuzatishimiz mumkin. Bu o'zgarishlar ko'p jihatdan inson faoliyatining faollashuvi bilan bog'liqdir.

Hozirgi kunda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida Situatsion markaz tashkil etilgan bo'lib, ushbu markaz faoliyatini samarali amalga oshirish uchun mutaxassislar talab etiladi.

4. Tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati

MMK-2025 ga muvofiq tarmoqqa tegishli kasblar ro'yxati quyidagi jadvalda keltiriladi:

T/r	Lavozim va kasblar kodi	Xizmatchilar lavozimlari va ishchilar kasblari nomlari
1.	11111004	O'zbekiston Respublikasi Vaziri
2.	11111007	O'zbekiston Respublikasi vaziri o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlari va o'rinbosarlari
3.	11200006	Boshqaruv (korporatsiya, assotsiatsiya, bank, trest) raisi va o'rinbosarlari
4.	11200007	Boshqaruv raisi va o'rinbosarlari
5.	11200023	Korxona bosh direktori (boshlig'i, boshqaruvchisi) va o'rinbosarlari
6.	11200010	Direktor va o'rinbosarlari
7.	11200014	Ijrochi direktor va o'rinbosarlari
8.	12190001	Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruvi (direksiyasi) a'zosi
9.	12190005	Bosh ekolog
10.	13211014	Bosh muhandis
11.	13214001	Chiqindi poligoni boshlig'i
12.	13214002	Chiqindixona mudiri
13.	13214003	Kimyo-bakteriologiya laboratoriya boshlig'i
14.	13214004	Maishiy chiqindilar poligoni boshlig'i (mudiri)
15.	13214005	Maishiy chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha uchastka (tuman) ustasi
16.	13214006	Nasos stansiyasi boshlig'i (suv va kanalizatsiya xo'jaligida)
17.	13214007	Shahar hududini tozalash, maishiy chiqindilarni chiqarish bo'yicha maxsus mashina kolonnasi boshlig'i
18.	13214008	Suv oqava tarmoqlari ekspluatatsiyasi bo'yicha tuman boshlig'i
19.	13214009	Suv o'tkazish-kanalizatsiya xo'jaligi avariya-dispatcherlik xizmati boshlig'i
20.	13214010	Tozalash inshootlari (stansiyasi) boshlig'i
21.	21331001	Atmosfera ifloslanishi bo'yicha tahlilchi
22.	21331002	Atrof-muhit muhofazasi va turdosh sohalar bo'yicha ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
23.	21331003	Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor
24.	21331004	Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha professional-mutaxassis
25.	21331005	Bioxilmaxillikni nazorat qilish bo'yicha professional-mutaxassis
26.	21331006	Ekologik politsiya inspektori
27.	21331007	Ekologik tahlilchi
28.	21331009	Radiatsion xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha professional-mutaxassis
29.	21331010	Radiatsion, kimyoviy va tibbiy biologik muhofazasi guruhi boshlig'i
30.	21331014	Yer resurslari bo'yicha professional-mutaxassis
31.	21331015	Atrof-muhitni himoya qilishda raqamli kuzatuv bo'yicha professional-mutaxassis
32.	21332001	Agroekolog
33.	21332002	Ekoauditor
34.	21332003	Ekolog
35.	21332004	Ekologiya bo'yicha ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar

36.	21332005	Ekolog-muhandis
37.	21332006	Geoekolog
38.	21332007	Gidrogeoekolog
39.	21332008	Suv ekologiyasi bo'yicha professional-mutaxassis
40.	21332009	Tuproq ekologiyasi bo'yicha professional-mutaxassis
41.	21333001	Chiqindilar bo'yicha professional-mutaxassis
42.	21333002	Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha muhandis-texnolog
43.	21334001	Ekologik audit va baholash bo'yicha professional-mutaxassis
44.	21334002	Iqlim o'zgarishi bo'yicha professional-mutaxassis
45.	21431001	Atrof-muhit va atmosfera ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha muhandis
46.	21431002	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muhandis
47.	21431003	Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar
48.	21431004	Atrof-muhitni tiklash bo'yicha muhandis
49.	21431007	Radiatsiya xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muhandis
50.	21431009	Tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha muhandis
51.	21431010	Xavfli chiqindilarni qayta ishlashni boshqarish bo'yicha muhandis
52.	21431012	Yer resurslaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishni nazorat qilish bo'yicha muhandis
53.	21432001	Chiqindilarni yig'ish va yo'q qilishni tashkil qilish bo'yicha muhandis
54.	31191001	Atrof-muhit ifloslanishini monitoring qilish bo'yicha texnik
55.	31191002	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha texnik
56.	31191003	Atrof-muhitni muhofaza va ekologiya bo'yicha laborant tadqiqotchi
57.	31191004	Atrof-muhitni tiklash bo'yicha texnik
58.	31191005	Ekologik xavfsizlik bo'yicha texnik
59.	31191006	Ekologiya va ekologik madaniyat bo'yicha texnik
60.	31191007	Havo tahlili bo'yicha texnik
61.	31191008	Maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar bo'yicha texnik
62.	31191009	Tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha texnik
63.	31191010	Yer osti suvlarini nazorat qilish bo'yicha texnik
64.	31192001	Materialshunoslik bo'yicha texnik
65.	31299001	Atrof-muhitni muhofaza qilish muhandisi yordamchisi
66.	31321001	Chiqindilarni minimallashtirish bo'yicha texnik
67.	31321002	Chiqindilarni qayta ishlash va saralash bo'yicha smena ustasi
68.	31321003	Chiqindilarni yoqish pechi operatori
69.	31321004	Xavfli chiqindilar bo'yicha texnik
70.	31329003	Chiqindilarni boshqarish bo'yicha mutaxassis-texnik
71.	33593001	Atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurashish inspektori
72.	33593002	Atrof-muhitni muhofaza qilish inspektori
73.	33593004	Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha inspektor
74.	33593005	Maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar inspektori
75.	33593009	O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga ixtisoslashgan muassasa inspektori
76.	33593011	Tabiiy qo'riqxonalarni muhofaza qilish inspektori
77.	33593012	Yer qa'ri boyliklarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish bo'yicha inspektor

78.	96110001	Chiqindi o'tkazgichlar farroshi
79.	96110002	Chiqindi qayta ishlovchi
80.	96110003	Chiqindi quvurlari ishchisi
81.	96110004	Chiqindilarni yig'uvchi
82.	96110005	Chiqindini chiqarib tashlash bo'yicha ishchi
83.	96110006	Ikkilamchi xomashyo ishchisi
84.	96110007	Ivrisqlarni qo'lda tozalash bo'yicha ishchi
85.	96110008	Suyuq chiqindilarni yig'uvchi
86.	96120001	Chiqindi saralovchi
87.	96120002	Ikkilamchi xomashyoni saralovchi

5. Yangi ishlab chiqilishi rejalashtirilgan kasbiy standartlar haqida ma'lumot¹

T/r	Kasbiy standartlar soni	Qamrab olinadigan kasb (lavozi)m(lar) soni	Ishlab chiqiladigan yil va oy
1	3	14	2025-yil, dekabr
2	3	13	2026-yil, dekabr

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-son qarori, 6-ilovasidagi 2025-2026-yillarda kasbiy standartlarni ishlab chiqish reja-jadvaliga muvofiq, Ekologiya, o'rmon xo'jaligi, gidrometeorologiya sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo'yicha tarmoq kengashiga tegishli bo'lgan 10 ta kasbiy standartning qolgan qismi o'rmon xo'jaligi va gidrometeorologiya sohalarini qamrab oladi.

6. Tarmoq malaka ramkasi malaka darajalarining tavsifi

Malaka darajasi		Bilim	Ko'nikma (mahorat)	Mas'uliyat va mustaqillik	Kasbiy faoliyat turlari va kasb (lavozim)lar kodi hamda nomi
Milliy malaka ramasi (MMR)	Tarmoq malaka ramasi (TMR)				
1	1	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida elementar va boshlang'ich umumiy bilimlar; Atrof muhitni muhofazasi bo'yicha asosiy tushunchalar, chiqindilarni saralash va ekologik xavfsizlikning oddiy qoidalari	Belgilangan qoidalarga muvofiq standart va oddiy vazifalarni bajarish; Oddiy tozalash ishlari yoki chiqindilarni saralash uchun zarur ko'nikmalar	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; O'zganing bevosita nazorati va kuzatuv ostida ishlash	38.11 Zararsiz chiqindilarni yig'ish 96110001 Chiqindi o'tkazgichlar farroshi 96110002 Chiqindi qayta ishlovchi 96110003 Chiqindi quvurlari ishchisi 96110004 Chiqindilarni yig'uvchi 96110005 Chiqindini chiqarib tashlash bo'yicha ishchi 96110006 Ikkilamchi xomashyo ishchisi 961100017 Ivisirlarni qo'lda tozalash bo'yicha ishchi 96110008 Suyuq chiqindilarni yig'uvchi 96120002 Ikkilamchi xomashyoni saralovchi
2	2	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida umumiy amaliy bilimlar; Atrof muhit qonunchiligining asoslari, chiqindilarni boshqarish va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida tayanch	Standart vazifalarni oddiy qoidalar va instrumentlar yordamida bajarish va yo'riqnoma bo'yicha harakat qilish; Oddiy monitoring va tozalash ishlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Nazorat ostida standart va oddiy vazifalarni bajarish	38.11 Zararsiz chiqindilarni yig'ish 62109001 Aholi punkti (dam olish zonasi)ni obodonlashtirish bo'yicha ishchi 81119004 Chiqindi ho'jaligi rostlovchisi 81219037 Ishlab chiqarish chiqindilari va oborotlarini qayta ishlash bo'yicha pechkachi 81219057 Lom va metall chiqindilarini yig'uvchi-saralovchi 81511004 Chiqindilarni qayta ishlovchi 81511003 Chiqindilarni erituvchi 81529002 Chiqindilarni presslovchi 81542008 Nam chiqindilarni yuvuvchi

		ma'lumotlar	ko'nikmalar		81549006 Chiqindilarni qurituvchi 91.41 Botanika va hayvonot bog'lari faoliyati 61290019 Yirtqich hayvonlarga qarovchi ishchi 61131006 Ko'kalamzorlashtiruvchi 61290017 Urchitish punkti ishchisi
3	3	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida umumiy amaliy va kasbiy bilimlar; Atrof muhit monitoringi usullari, ifloslanish manbalari va tabiiy muhitni saqlash dasturlari	Belgilangan vazifalarni bajarish va muammolarni hal qilish uchun asosiy usullar, vositalar, materiallar va ma'lumotlarni saralash va foydalanish; Oddiy namuna olish va atrof muhit holatini baholash uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	O'z harakatlari, ish natijalari va boshqalarning harakatlari uchun javobgarlik; Muammolarni hal qilishda zaruratdan kelib chiqib mustaqil qaror qabul qilish; Oddiy ekologik hodisalarda choralarni ko'rish	38.11 Zararsiz chiqindilarni yig'ish 43220001 Aholi yashash joylarini obodonlashtirish bo'yicha ishchi (ishlab chiqarish hududi) 62109002 Birlashtirish (saralash) dastgohlari mashinisti 62109003 Birlashtiruvchi 62210005 Baliqshunos 81511002 Chiqindilarga ishlov berish agregati operatori 91.41 Botanika va hayvonot bog'lari faoliyati 61131006 Ko'kalamzorlashtiruvchi 61212004 Hayvonlarni va parrandalarni sun'iy urchitish bo'yicha operator 61290006 Hayvonlarni kuzatib borish bo'yicha kuzatuvchisi
4	4	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida keng qamrovli amaliy va nazariy bilimlar; Atrof muhit ta'sirini baholash usullari, ekologik qonunchilik dasturlari	Mehnat holati va uning oldindan aytish mumkin bo'lgan o'zgarishlarini baholashni talab qiladigan muammolarni hal qilish; Atrof muhit holatini baholash va saqlash	O'z harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirish va tashkil qilish; Individual monitoring ishlarini	84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi 24321003 Jamoatchilik bilan aloqalar bo'yicha mutaxassis 91.41 Botanika va hayvonot bog'lari faoliyati 21332001 Agroekolog 61290007 Hayvonshunos 75490013 Suv inshootlari kuzatuvchisi

			choralarini rejalashtirish uchun zarur bo'lgan amaliy va kognitiv ko'nikmalar	mustaqil boshqarish	
5	5	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida ixtisoslashgan nazariy va amaliy bilimlar; Ekologik reabilitatsiya, ifloslanish oldini olish va tabiiy resurslarni boshqarish bo'yicha chuqur ma'lumotlar, shuningdek, atrof muhit monitoringining psixologik va huquqiy asoslari	Muammolarga ijodiy yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan keng qamrovli amaliy va kognitiv ko'nikmalar; Murakkab ekologik vaziyatlarni hal qilish va saqlash dasturlarini ishlab chiqish	Biriktirilgan xodimlar harakatlari va ish natijalari uchun javobgarlik; Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasidagi mehnat jarayonlarini mustaqil boshqarish va nazorat qilish	38.11 Zararsiz chiqindilarni yig'ish 31419001 Agrokimyoviy tahlil laboranti 33593001 Atrof-muhit ifloslanishiga qarshi kurashish inspektori 33593002 Atrof-muhitni muhofaza qilish inspektori 33593009 O'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilishga ixtisoslashgan muassasa inspektori 33593011 Tabiiy qo'riqxonalarini muhofaza qilish inspektori 31191001 Atrof-muhit ifloslanishini monitoring qilish bo'yicha texnik 31191002 Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha texnik 31191003 Atrof-muhitni muhofaza va ekologiya bo'yicha laborant tadqiqotchi 31191004 Atrof-muhitni tiklash bo'yicha texnik 31191005 Ekologik xavfsizlik bo'yicha texnik 31191006 Ekologiya va ekologik madaniyat bo'yicha texnik 31191007 Havo tahlili bo'yicha texnik 31191008 Maxsus muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar bo'yicha texnik 31191009 Tabiiy resurslardan foydalanish bo'yicha texnik 31299001 Atrof-muhitni muhofaza qilish muhandisi yordamchisi


					91.41 Botanika va hayvonot bog'lari faoliyati 31119002 Laborant Atrof muhitni muhofaza qilishning tibbiy jihatlarini bo'yicha mutaxassislar va inspektorlar Park ekologi 84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi sohasida bo'lim, inspeksiya bosh mutaxassislari
6	6	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida keng va integratsiyalashgan bilimlar, huquqiy va ilmiy asoslar; Eng muhim nazariyalar va usullar, atrof muhit monitoringi va prognozlash usullari, geo-ekologiya va tabiiy resurslar to'g'risida nazariy bilimlar	Turli standartlar va tez-tez o'zgarib turadigan talablarni hisobga olgan holda yangi yechimlarni ishlab chiqish, faoliyat, usullar va ularning natijalarini baholash; Individual ekologik dasturlarni amalga oshirish va atrof muhit muhofazasini muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar	Oldindan aytib bo'lmaydigan ekologiya va atrof muhit muhofazasi bo'yicha qarorlar qabul qilish va mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, biriktirilgan xodimlarning kasbiy rivojlanishini boshqarish uchun javobgarlik; Murakkab texnik va kasbiy faoliyat va loyihalarni boshqarish	38.11 Zararsiz chiqindilarni yig'ish 21333002 Chiqindilarni qayta ishlash va utilitatsiya qilish bo'yicha muhandis-texnolog 21620004 Yashil hududlarni barpo etish bo'yicha muhandis 13214004 Maishiy chiqindilar poligoni boshlig'i 13214005 Maishiy chiqindilarni yo'q qilish bo'yicha uchastka (tuman) ustasi Ichimlik va oqova suvlarni tozalash inshootlarini loyihalash bo'yicha mutaxassis Mavjud bo'lgan poligonlar faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha mas'ul xodim 84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi 21331003 Atrof-muhitni himoya qilish bo'yicha inspektor 21331004 Atrof-muhit muxofazasi bo'yicha professional-mutaxassis 14390006 Bo'lim boshlig'i (maishiy va kommunal xizmat ko'rsatishda) 21332007 Hidrogeoekolog 21332005 Ekolog-muhandis 21332003 Ekolog

					33593004 Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha inspektor 21331009 Radiatsion xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi bo'yicha professional-mutaxassis 21431001 Atrof-muhit va atmosfera ifloslanishini nazorat qilish bo'yicha muhandis 21431002 Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha muhandis 21331005 Bioxilmaxillikni nazorat qilish bo'yicha professional-mutaxassi 21331006 Ekologik politsiya inspektori 21331007 Ekologik tahlilchi 21332002 Ekoauditor 21332006 Geoekolog 21332008 Suv ekologiyasi bo'yicha professional-mutaxassis 21332009 Tuproq ekologiyasi bo'yicha professional-mutaxassis 21333001 Chiqindilar bo'yicha professional-mutaxassis 21333002 Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo'yicha muhandis-texnolog 21334001 Ekologik audit va baholash bo'yicha professional-mutaxassis 21334002 Iqlim o'zgarishi bo'yicha professional-mutaxassis 21331015 Atrof-muhitni himoya qilishda raqamli kuzatuv bo'yicha professional-mutaxassis 21323006 Tuproqshunos
--	--	--	--	--	--

7	7	Ekologiya va atrof muhit muhofazasi sohasida innovatsion yondashuvlar va/yoki ilmiy tadqiqotlarga asoslangan yuqori ixtisoslashgan bilimlar, shuningdek, bir soha yoki turli sohalarga oid o'zaro bog'liq bilimlar; Atrof muhit siyosatini shakllantirish, monitoring va baholash usullari, strategik loyihalash uchun zarur bilimlar	Yangi bilim va texnologiyalarni ishlab chiqish va turli sohalardagi bilimlarni birlashtirish uchun ilmiy tadqiqot va/yoki innovatsiyalarda talab qilinadigan muammolarni, shu jumladan, strategik muammolarni hal qilish; Atrof muhit muhofazasi siyosatini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan maxsus kasbiy ko'nikmalar	Oldindan aytib bo'lmaydigan sharoitlarda qaror qabul qilish, jamoalar strategik faoliyatini ko'rib chiqish uchun javobgarlik; Yangi strategik yondashuvlarni talab qiladigan murakkab, oldindan aytib bo'lmaydigan ekologiya va atrof muhit muhofazasi faoliyatini boshqarish, loyihalash va o'zgartirishda to'liq mas'uliyat	84.11 Umumiy tUSDagi davlat boshqaruvi 11111007 O'zbekiston Respublikasi vaziri o'rinbosarlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlari va o'rinbosarlari 12190005 Bosh ekolog 13111018 Bosh tuproqshunos Atrof-muhit muhofazasi bo'limi boshlig'i 13214007 Shahar hududini tozalash, maishiy chiqindilarni chiqarish bo'yicha maxsus mashina kalonnasi boshlig'i Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha bosh inspektor Davlat muassasasi boshlig'i Departament direktori o'rinbosari Departament direktorining birinchi o'rinbosari Departament direktori Bosh huquqiy maslahatchi 91.41 Botanika va hayvonot bog'lari faoliyati Muhofazalovchi daraxtzor distansiyasi boshlig'i
8	8	Murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish uchun zarur bo'lgan ilmiy va kasbiy faoliyat sohasidagi eng ilg'or innovatsion va ixtisoslashgan bilimlar;	Yangi bilim va yechimlarga olib keladigan loyihalarni tadqiq qilish, ishlab chiqish va amalga oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat natijalarini prognoz qilish, kasbiy va ijtimoiy sohada keng	O'zining va ilmiy jamoaning tadqiqot natijalari, ularning davlat va xalqaro miqyosdagi iqtisodiy samarasi uchun mas'uliyat; Yirik institutsional tuzilmalar darajasida qarorlar qabul qilish	84.11 Umumiy tUSDagi davlat boshqaruvi 21332004 Ekologiya bo'yicha ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar 21331002 Atrof-muhit muhofazasi va turdosh sohalar bo'yicha ilmiy xodimlar va ilmiy tadqiqotchilar

		Ekologiya sohasidagi global tendentsiyalar, tadqiqot natijalarini prognozlash va milliy atrof muhit siyosatini rivojlantirish uchun maxsus bilimlar	ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish, murakkab sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, ixtisoslashgan ilmiy tadqiqot, ishlanmalar va innovatsiyalar sohasidagi yangi muammolarni aniqlash va yechimlarini topish uchun zarur bo'lgan eng ilg'or va maxsus ko'nikmalar; Milliy ekologiya tizimini rivojlantirish va baholash	va strategiyani belgilash, murakkab ijtimoiy, sanoat va ilmiy jarayonlarni boshqarish, yangi va murakkab g'oyalarni tanqidiy tahlil qilish, baholash va sintez qilish, jamiyatning texnik, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti uchun strategik qarorlar qabul qilish	
--	--	---	---	--	--

7. Tarmoqning funksional xaritasi



**8. Tarmoq malaka ramkasini ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilot
(korxona)lar to'g'risida ma'lumot**

T/r	Ishlab chiquvchilar to'g'risida ma'lumot	
	Ish joyi va lavozimi	Familiyasi, ismi, otasining ismi
1	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi boshlig'i	B. Kazakbayeva
2	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi	X. Ismoilov
3	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Mustaqil maslahatchi	N. Almedov
4	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) Akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish bo'limi menejeri	I. Mashrabaliyev
5	Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti (Green University) Akademik hamkorlik va dasturlarni rivojlantirish bo'limi menejeri	U. Ermumimov
6	"Ekomodern" MCHJ direktori	S. Axmedova
7	O'rmon xo'jaligi texnikumi ta'lim ustasi	F. G'ofurov